

# **“YASHIL MAKON” HUDUDIY EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLOVCHI STRATEGIK OMIL SIFATIDA**

*Usmanov Dilmurod Dolimovich – Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrası katta o`qituvchisi*

*Tojiboyev Murodali Umaraliyevich – Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrası v/b dotsenti*

*Xaydarova Ziyoda Ravshanbek qizi – Biologiya yo`nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “Yashil makon” umummilliy tashabbusining hududiy ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi strategik ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil hududlarni kengaytirish orqali atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, bioxilma-xillikni saqlash, tuproq degradatsiyasi va cho‘llanish jarayonlarini kamaytirish, shuningdek, iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish masalalari chuqur o‘rganiladi. Shu bilan birga, urbanizatsiya sharoitida yashil infratuzilmani rivojlantirish, aholi turmush sifati va salomatligini yaxshilash, ekologik madaniyatni oshirish hamda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Yashil makon, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishi, global isish, yashil hududlar, ko‘kalamzorlashtirish, bioxilma-xillik, ekologik muvozanat, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik siyosat, urbanizatsiya, yashil infratuzilma, tabiiy resurslar, ekologik xavfsizlik, tuproq degradatsiyasi, cho‘llanish, ekologik madaniyat, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.*

**Abstract:** *This article provides a comprehensive analysis of the strategic role of the “Green space” national initiative in ensuring regional environmental sustainability. The study focuses on the expansion of green areas as a key factor in strengthening environmental protection, preserving biodiversity, preventing land degradation and desertification, and mitigating the adverse impacts of climate change. Furthermore, the research examines the development of green infrastructure in the context of rapid urbanization, improvement of public health and quality of life, enhancement of environmental awareness, and rational use of natural resources.*

**Keywords:** *Green space, environmental sustainability, regional development, environmental protection, climate change, global warming, green areas, afforestation, biodiversity, ecological balance, sustainable development, green*

*economy, environmental policy, urbanization, green infrastructure, natural resources, environmental security, land degradation, desertification, environmental awareness, innovative technologies, socio-economic development.*

Bugungi kunda global miqyosda kuzatilayotgan ekologik muammolar, xususan iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning kamayib borishi insoniyat oldida dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat tabiiy muhitga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ekologik barqarorlikni ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hududlarda ekologik muvozanatni saqlash muammosi yanada dolzarb tus olmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ekologik muammolarni tizimli hal etish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish hamda aholi uchun sog'lom ekologik muhit yaratish maqsadida qator keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim strategik tashabbuslardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Har bir hududda yashil maydonlarni kengaytirish, daraxt ekish va ularni parvarishlash nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlod oldidagi muqaddas burchimizdir".<sup>1</sup> Ushbu fikr ekologik masalalarning davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini yaqqol namoyon etadi. Mazkur tashabbus doirasida respublikaning barcha hududlarida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Andijon viloyati misolida ko'rish mumkinki, so'nggi yillarda aholi yashash hududlarida, yo'l bo'ylarida va ijtimoiy obyektlar atrofida minglab daraxt va butalar ekilib, yashil hududlar sezilarli darajada kengaytirildi. Bu esa nafaqat hududning ekologik holatini yaxshilash, balki aholining turmush sifati va estetik muhitini oshirishga xizmat qilmoqda. Andijon tajribasi "Yashil makon" tashabbusining hududiy darajada samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatib, uni boshqa hududlarda ham keng joriy etish zarurligini asoslaydi.<sup>2</sup> Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash faqatgina daraxt ekish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon ekologik ong va madaniyatni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligini talab etadi. Ayniqsa, yosh avlodda ekologik

---

<sup>1</sup> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni. "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2019.

mas'uliyat hissini shakllantirish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

“Yashil makon” tashabbusining asosiy maqsadi hududiy ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorligini ochib berish hamda hududlar, xususan Andijon viloyati misolida amaliy natijalarini yoritishdan iboratdir. Uning strategik ahamiyatini har tomonlama va chuqur o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvlarni talab etadi. Avvalo, tashabbusning nazariy asosini ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda ekologik siyosatga oid konseptual yondashuvlar tahlil qilindi. Xususan, “Yashil makon” tashabbusining mazmun-mohiyati, uning asosiy maqsad va vazifalari, amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalari nazariy jihatdan o'rganildi. Tahlil ushbu yordamida ekologik barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar - yashil hududlar hajmi, daraxt ekish ko'rsatkichlari, atrof-muhit holati, aholi salomatligi va urbanizatsiya darajasi o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Bu esa “Yashil makon” dasturining nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli orqali turli hududlarda amalga oshirilayotgan ko'kalamzorlashtirish ishlari natijalari o'zaro solishtirildi. Ayniqsa, Andijon viloyati misolida olib borilgan kuzatuvlar asosida hududiy tajriba tahlil qilinib, uning o'ziga xos jihatlari va samaradorligi aniqlab berildi. Ushbu yondashuv boshqa hududlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. Hududlarda ekilgan daraxtlar soni, yashil hududlar kengayishi, ekologik holatning o'zgarishi kabi ko'rsatkichlar mavjud statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.<sup>3</sup> Tahlil jarayonida “Yashil makon” tashabbusining alohida komponentlari - ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa, sintez usuli orqali ular yagona tizimga keltirilib, umumiy xulosalar shakllantiriladi. Bu esa mazkur tashabbusning hududiy rivojlanishdagi kompleks ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, prognozlash usuli orqali kelgusida

---

<sup>2</sup> 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-46-son Qarori. “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2021.

<sup>3</sup> 3. Abdullayev B.T. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish. – Toshkent: Universitet, 2021. – 232 b.

yashil hududlarni kengaytirishning ekologik barqarorlikka ta'siri baholanadi. Ushbu yondashuv asosida "Yashil makon" dasturining uzoq muddatli istiqboldagi natijalari, xususan, iqlim o'zgarishini yumshatish, havo sifatini yaxshilash va bioxilma-xillikni saqlashdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.<sup>4</sup> Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi taxliliga kora ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minlab, "Yashil makon" tashabbusining hududiy ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi strategik omil sifatidagi o'rnini chuqur va har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yashil hududlarni kengaytirish, daraxt va butalar ekish hamda ularni tizimli parvarishlash orqali atrof-muhit holatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Xususan, havoning ifloslanish darajasi kamayishi, kislorod miqdorining ortishi, mikroiklimning yumshashi kabi ijobiy ekologik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Hududlarda ko'kalamzorlashtirish ishlari kengaygani sari ekologik muvozanatning tiklanishiga erishilayotganligi aniqlanmoqda. Ayniqsa, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yashil infratuzilmaning rivojlanishi aholi salomatligi va turmush sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.<sup>5</sup> Yashil hududlarning ortishi natijasida shovqin darajasi kamayib, psixologik muhit yaxshilanib, aholining dam olish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa ekologik barqarorlikning ijtimoiy komponenti ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Hududiy misol sifatida ko'rib chiqilgan Andijon viloyatida "Yashil makon" tashabbusi doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili ushbu dastur samaradorligini yaqqol namoyon etdi. So'nggi yillarda viloyatda yo'l bo'ylari, mahallalar, ta'lim muassasalari va sanoat hududlari atrofida keng ko'lamlil ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilib, yashil hududlar sezilarli darajada kengaytirildi. Natijada hududda ekologik muhitning yaxshilanishi, chang va zararli gazlar miqdorining kamayishi hamda estetik muhitning shakllanishi kuzatildi. <sup>6</sup>Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyati va daraxt ekishga bo'lgan mas'uliyati ham ortib bormoqda. Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, "Yashil makon" tashabbusi faqat ekologik muammolarni hal qilish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yashil hududlar kengayishi orqali yangi ish o'rinlari

---

<sup>4</sup> 4. G'ulomov S.S. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologiya. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.

<sup>5</sup> 5. Rasulov A.R. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 198 b.

<sup>6</sup> 6. Karimov N.X. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 214 b.

yaratilishi, turizm salohiyatining oshishi, hududlarning investitsion jozibadorligi ortishi kabi ijobiy natijalarga erishilmoqda. Bu esa tashabbusning kompleks va ko‘p qirrali ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim hududlarda ekilgan daraxtlarning parvarishi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari, ekologik nazorat tizimining ayrim jihatlari takomillashtirishni talab qilishi kuzatildi. Bu esa “Yashil makon” tashabbusini yanada samarali amalga oshirish uchun tizimli yondashuv va doimiy monitoring zarurligini ko‘rsatadi.<sup>7</sup> Ekologik barqarorlikni ta‘minlash uzoq muddatli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u davlat siyosati, jamiyat ishtiroki va ilmiy yondashuvlar uyg‘unligini talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, masalan, tomchilatib sug‘orish tizimlari, ekologik monitoring dasturlari va raqamli boshqaruv tizimlari orqali yashil hududlarni samarali boshqarish imkoniyatlari kengayadi. Olib borilgan tahlillar “Yashil makon” tashabbusi hududiy ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim strategik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Uning samaradorligini oshirish uchun hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashuvni kuchaytirish, ekologik ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish hamda davlat va jamiyat hamkorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Yashil makon” umummilliy tashabbusi O‘zbekiston hududlarida ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yashil hududlarni kengaytirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish hamda ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘sirini kamaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Tahlillar asosida aniqlanishicha, mazkur tashabbus nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etishga, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Xususan, yashil infratuzilmaning jlanishi aholi turmush sifati yaxshilanishiga, ekologik madaniyatning shakllanishiga hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga zamin yaratmoqda. Andijon viloyati misolida kuzatilgan natijalar ushbu tashabbusning amaliy samaradorligini yaqqol tasdiqlab, uni boshqa hududlarda ham keng joriy etish zarurligini ko‘rsatdi.

---

<sup>7</sup> 7. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York, 2015.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni. "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi to'g'risida". – Toshkent, 2019.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-46-son Qarori. "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2021.

3. Abdullayev B.T. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish. – Toshkent: Universitet, 2021. – 232 b.

4. G'ulomov S.S. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va ekologiya. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.

5. Rasulov A.R. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 198 b.

6. Karimov N.X. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 214 b.

7. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York, 2015.

8. Tojiboyev M.U., Yuldashev A.S. (2025) Bioecological characteristics of *Crataegus turkestanica* Pojark. in the Kungurbuka mountains of the Chatkal range (Uzbekistan) European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. Vol.5. Issue 1. P. 5-10

9. Yuldashev A.S., Tojiboyev M.U. К изучению растительных ресурсов горы Кунгурбука (Западный Тянь-Шань) // Иқлим ўзгариши, табиатдан фойдаланиш муаммолари ва истиқболлари // халқаро илмий-амалий конференция. Фарғона, 2024-йил 13-декабрь. 291-293 б.